IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: JX4458324538

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
KATTAQO'RGON SHAHAR YURIDIK XIZMAT
KO'RSATISH MARKAZI

Kattaqo`rgon shahar A.Navoiy ko`chasi 156-уй Davlat xizmatlari markazi binosi

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO`G`RISIDA HUQUQIY XULOSA

Hujjat raqami №CI61212136

1. Loyihaning turi. Shartnoma.
2. Loyihaning nomi.

Kattaqo'rg'on shahar Madaniyat bo'limi hamda OOO Marjona Qo`rg`on Invest o'rtasida tuzilgan 121054 -sonli ishlarni bajarish uchun tuzilgan shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Shartnoma loyihasi Kattaqo'rg'on shahar Madaniyat bo'limi tomonidan 2022 yil 25 iyulda ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Kattaqo`rg`on shahar yuridik xizmat ko`rsatish markazi bosh yuriskonsulti:** **A.Haitov**

## XIZMATLAR KO'RSATISHGA (ISHLARNI BAJARISHGA) OID SHARTNOMA № 121054

Kattako'rg'on shahri « 26 » «iyul » 2022 yil

**OOO MARJONA QO'RG'ON INVEST** (tashkilot, korxona nomi) keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining **Ustavi (nizomi, ustavi, ishonchnoma)** asosida ish yurituvchi M.Siradjova (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomondan va **Kattako'rgon shahar Madaniyat bo'limi** (korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi O.Bozorov (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" " Buyurtmachi "ga **Xar xil turdagi bannerlarni tayyorlash va o'rnatish uchun** (keyingi o'rinlarda - "Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmat ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

| № | Naimenovanie tovara | yedinitsa izmereniya | Kol-vo | Dogovornaya sena za yed. | Summa dogovora |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Xar xil turdagi bannerlarni tayyorlash va o'rnatish** | M2 | 370 | 35 136 | 13 000 320 |
| | **Jami** | | | | 13 000 320 |

### II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYaTLARI

**2.1. " Buyurtmachi "ning huquqlari:**

2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" " Buyurtmachi "ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:
- zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;
- "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;
- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

**2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:**

2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022 _ yilda byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng 10 kun mobaynida haq to'lash.

**2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:**

2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

**2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:**

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik bo'limidan ruyxatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar"ni ko'rsatish;

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun muddatda tekin tuzatib berish.

### ShARTNOMANINGBAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi 13 000 320 so'mni tashkil etadi. Ko'rsatiladigan "Xizmatlar"ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. "Buyurtmachi" ko'rsatiladigan "Xizmatlar" turkumi summasining 30 foizi miqdorida 2022 yilning iyul oyida oldindan haq to'laydi va qolgan 70 foizini ishlar bajarilib bo'lgandan so'ng to'laydi. .

3.3. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

3.3. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

## IV. ShARTNOMANING BAJARILIShI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.
4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.
4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtma"chining Hisob-kitob hujjatida g'aznachilik bo'linmalarining shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to'lash bo'yicha "Buyurtmachi" majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.
4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.
4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'rni to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.
4.6. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.
4.7. Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan
muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning
buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Buyurtmachi"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.
4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.
5.2. Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.
5.3. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Xizmatlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.
5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.
5.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.
5.6."Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.
5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

## VI. NIZOLARNI HAL ETISh TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko‘ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko‘radilar.
6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

## VII. ShARTNOMANING AMAL QILIShI

7.1. Mazkur shartnoma 2022 yil «26 » iyuldan 2022 yil «31» dekabrgacha amalda bo‘ladi.
7.2. Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to‘liq tugallangan taqdirda to‘xtatiladi.

## VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatidan va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq, korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
8.2 Taraflarning shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligi, taklif etilmaganligini, ularni berishga vada qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida tasurrot qoldirmaganligini) kafolatlo'aydi. Taraflar ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning yordamchi po'dratchi tashkilotlar, agentlar va tariflar nazorati ostidagi boshqa shahslarning Yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.
8.4 Tariflar davlat xizmatchilari siyosiy partiyalar shuningdek o'zlarining ijroiya organlari mansabdor shaxslari va shaxslar tomonidan harqanday vaqt va shaklda quydagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi.A)Nazorat qiluvchi organlardan letsenziya va ruhsatnomalar olib, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish. Sudda ish ko'rilishi qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga hilof ravishta tijorat va boshqa tusdagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nommoddiy naf olishning taklif etilishi va'da qilinishi berilishiga B)Qonunga xilof ravishda olingan daromatlarning legallashtirilishiga shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromat ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yuli bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyida tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga; V) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu xolat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.
8.5 Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlari realizatsuya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarini olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, huquqshunoslar,hisobchilar,ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarga ) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: -korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalbh qilish; ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.
8.6. Taraflar urarning nazorati bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shahslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzulganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga taziyiq o'tkazmasligini kafolatlaydilar.
8.7.Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 8.4-va 7.5- bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat bichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor

## IX. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.
9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.
9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.
9.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak

## X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK ReKVIZITLARI

**«Ijrochi»**

**OOO MARJONA QO'RG'ON INVEST**

(mol yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: : Kattaqo'rg'on shahar Firdavsiy kuchasi 10A uy

Tel./faks

h/v 20208000300885944001

**Bank nomi** *« Mikrokredit» bank Kattaqo'rg'on sh* f-l

MFO *00315* STIR 305577726

Rahbar **M.Siradjova**

(imzo)

**«Buyurtmachi»**

**Kattako'rgon shaxar Madaniyat bulimi**

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil : Kattako 'rgon shaxar Nuroniy 23

Tel./*faks*

sh/h 400122860184067082310056001

**byudjetdan mablag' oluvchi STIRi** 200722267

**OKONX** 97600

**G'aznachilik nomi** _Moliya vazirligi G'aznachiligi_

**G'azna h/v** __23402000300100001010

**Bank** _Mar.bank Toshkent sh. Bosh boshk. XKKM

**MFO** __00014__

**g'aznachilik STIRi** __201122919_

**Rahbar** **O.Bozorov**

(imzo)

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 121054 на приобретение Маданият булими биноларига баннер ясаш хизмати

Способ проведения электронный

Дата 19.07.2022

Время рассмотрения 19.07.2022 11:29

Конкурсная комиссия Маданият ва спорт ишлар булими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | IRMANOVA SAYARA SHAIMOVNA | ходим | маданият булими |
| **Секретарь комиссии** | YULDASHEVA SAYYORA ZUBAYDULLAYEVNA | ходим | маданият булими |
| **Член комиссии** | YULDOSHEV SHERZOD XUDOYBERDIYEVICH | ходим | маданият булими |
| **Член комиссии** | ERGASHEVA SHAXLO QOBIL QIZI | ходим | маданият булими |
| **Член комиссии** | OMONOV NAJIM G'ANIYEVICH | ходим | маданият булими |
| **Член комиссии** | AMANOV OLIMJON GAYBULLAYEVICH | ходим | маданият булими |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 19.07.2022 года № лота 121054.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 55

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по широкоформатному печатанию баннеров** |
|---|---|
| Подробное описание | Маданият булимига карашли биноларга баннер ясаш хизмати |
| Количество товара | 370.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 40 000.00 |
| Стартовая сумма | 14 800 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги

Тип: Бинарное значение

Описание: шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO MARJONA QO'RG'ON INVEST** | 20 | 1 | 19 | Экспертная | | |
| **DREAM-PRINT PLUS MCHJ** | 20 | 1 | 17 | Экспертная | | |

Критерий №2 шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуққа эгалик

Тип: Бинарное значение

Описание: шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуққа эгалик

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO MARJONA QO'RG'ON INVEST** | 20 | 1 | 19 | Экспертная | | |
| **DREAM-PRINT PLUS MCHJ** | 20 | 1 | 16 | Экспертная | | |

Критерий №3 солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги

Тип: Бинарное значение

Описание: солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO MARJONA QO'RG'ON INVEST** | 20 | 1 | 20 | Экспертная | | |
| **DREAM-PRINT PLUS MCHJ** | 20 | 1 | 16 | Экспертная | | |

Критерий №4 ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги; Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги

Тип: Бинарное значение

Описание: ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги; Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO MARJONA QO'RG'ON INVEST** | 20 | 0 | 19 | Экспертная | | |
| **DREAM-PRINT PLUS MCHJ** | 20 | 1 | 15 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом | Применение преференции | Общее значение | Дата предложения | Оценка стоимости |
|---|---|---|---|---|---|---|---|

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | конвертации (UZS) | | (UZS) | | (балл) |
| **ООО MARJONA QO'RG'ON INVEST** | 14 800 000.00 | 13 000 320.00 UZS | 13 000 320.00 | 00.00 | 13 000 320.00 | 15.07.2022 15:56:51 | 20.00 |
| **DREAM-PRINT PLUS MCHJ** | 14 800 000.00 | 14 060 000.00 UZS | 14 060 000.00 | 00.00 | 14 060 000.00 | 16.07.2022 15:34:17 | 18.49 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ООО MARJONA QO'RG'ON INVEST** | 77 | 20 | 97 |
| **DREAM-PRINT PLUS MCHJ** | 64 | 18.49 | 82.49 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 121054 от 19.07.2022 года на приобретение Маданият булими биноларига баннер ясаш хизмати определила победителем:

ООО MARJONA QO'RG'ON INVEST
305577726

и резервный исполнитель: DREAM-PRINT PLUS MCHJ (308871098)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | ERGASHEVA SHAXLO QOBIL QIZI | Согласен | |
| **Председатель комиссии** | IRMANOVA SAYARA SHAIMOVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | OMONOV NAJIM G'ANIYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | YULDOSHEV SHERZOD XUDOYBERDIYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | AMANOV OLIMJON GAYBULLAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП